

**Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini bajarish uchun  
shartnoma**

2022 yil «31» 10

476-12-170-  
OB/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi kelgusi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb atalib Nizomga asosan korxona raxbari O.Avezov bir tomondan «ELEKTRO LOYIXA» XF keyingi o'rirlarda «Bajaruvchi» deb atalib hamda Nizom asosida ish yurituvchi nomidan rahbar K.Tangriberganov ikkinchi tomondan mazkur loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini bajarish ishlari bo'yicha shartnoma tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI.**

1.1 Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 25 oktyabrdagi № 166018-soni yig'ilish bayonnomasiga asosan bajaruvchi «Xorazm viloyati Bog'ot tuman markazidan Dexqonbozor mahallasigacha, avtomobil qatnov yo'li Xonqa va Xazarasp tumanllari kesishmalariga tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari » ob'ekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi tartib-qoidalar va me'yorlarga rioya etgan holda ishlab chiqadi.

1.4. Bajariladigan ishlar tartibi, amalga oshirish muddatlari quyidagi tartibda:

- bajariladigan ishlar muddatining kalendar rejasiga 1-ilovaga muvofiq;
- asoslashtirilgan kelishuv bayonnomasi 2- ilovaga muvofiq;

Ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

**2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI.**

**2.1. Buyurtmachining majburiyatları:**

2.2. Bajaruvchi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish.

2.3. Tayyor bo'lgan loyiha-smeta amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash majburiyatini oladi.

**2.5. Bajaruvchining majburiyatları:**

2.6. Bajaruvchi ishlarni texnik topshiriq va kelishilgan grafik asosida o'z vaqtida sifatli bajarishni, Buyurtmachi bilan bajarilgan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishish;

2.7. Ob'ektning qurilish-montaj jarayonida mualliflik nazoratini olib borish ishlari amalga oshirishi shart;

2.8. Ushbu shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, bir haftadan oshmagan muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajarish majburiyatini oladi.

**3. ISHLARNING TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI**

3.1. Quyidagi shartlarning to'liq amalga oshirilganda taraflar imzolangan shartnoma majburiyatlarning bajarilishi boshlangan hisoblanadi.

3.2. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan 3 nusxada loyiha-smeta hujjatlar to'plamini topshiradi.

3.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish bir-birini xabardor qilishi va 15 ish kunida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib

chiqishi shart. Ishlarning to'xtalishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

3.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqt hisoblanadi.

#### 4. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV TARTIBI.

4.1. SHartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan – **48 200 000 (Qirq sakkiz million ikki yuz ming) so'mni** tashkil etadi.

4.2. «Buyurtmachi» shartnoma imzolanganidan so'ng shartnoma bahosining 30 % miqdorida bo'nak (avans) to'lovini amalga oshiradi.

4.3. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi. Quyidagi hollarda:

-ishlar qiymati ko'paytirishga engib bo'lmaydigan ya'ni (fors-major) holatlari sabab bo'lganda va ishlar Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

#### 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni taraflar bajarmaganida mazkur shartnomaning amaldagi talablari va O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalariga (SHNK 1.03.01-08) muvofiqligi yuzasidan javob beradi.

5.2. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun qurilish loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlangunga qadar javob beradi. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini sifatini oshirish maksadida bepul qayta ishlab chiqadi.

5.3. SHartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

5.4. Mazkur shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan hollarda, tomonlar kelishuviga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.5. Shartnoma bo'yicha ishlarni (xizmatlarni) o'z vaqtida bajarmaganlik uchun Ijrochi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan to'lov miqdorining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiyligi summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.6. Bajarilgan ishlar (xizmatlar) uchun to'lovnin o'z vaqtida amalga oshirmaganlik uchun Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir kun uchun amalga oshirilmagan to'lov miqdorining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiyligi summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.7. SHartnoma «Bajaruvchi»ning tashabbusi bilan bekor qilinganda, shartnoma bekor qilingunga qadar bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag' «Bajaruvchi»ga qaytarilmaydi.

5.8. SHartnoma muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirgan taraf 10 kun oldin muddatda ikkinchi tarafni xabardor qilishi lozim. Bunda taraflar o'rtaida haqiqatda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha belgilangan hujjatlar asosida to'liq hisob-kitob qilingan holda amalga oshiriladi.

Penya to'lash

Bajaruvchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

5.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

#### 6. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmasan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmasan holatlari (engib bo'lmas kuch), epidemiya va h.k. oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi.

6.2. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtaida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.3. Muzokoralar olib borish yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarini o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 7. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA UNGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH.

7.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 8.KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

8.1 Tomonlar xamda ularning vakillari mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'grisida»gi qonun xujjatlarining talablariga zid keladigan xar qanday xarakatlarini amalga oshirmaydilar. SHu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamayda, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan xolda pora bergen shaxsnинг manfatlarini ko'zlab muayyan xarakatlarni sodir etish yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy kiyamatliklar yoki mulkiy naf olvaydi. Tomonlar ushu xarakatlarga yo'l qo'maslik, o'yicha choralar ko'rishiga kafolat beradi

«BUYURTMACHI»

«ISH BAJARUVCHI»

### «Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»

Manzil: Bog'ot shahri, Tinchlik ko'cha 2 uy  
tel.

H/r : 401722860332047065200110006  
INN 206943827 OKONX 90290 OKED  
Bog'ot tuman G'aznachilik boshqarmasi  
H/r: 23402000300100001010  
Markaziy bank Toshkent shahri  
MFO 00014 INN 201122919

rahbari

O.Avezov  
(muhr, imzo)



### «ELEKTRO LOYIXA» XF

Manzil: URGANCH SHAXAR XONQA 102-8 UY P

Tel. 97 791 65 25  
H/r 20208000605159679001  
Bank nomi: Qishloqqrilish bank Xorazm filiali  
MFO :01037 INN 306989505  
OKONX \_\_\_\_\_ OKED \_\_\_\_\_



Rahbari

K.Tangriberganov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

**IC2406347161**

- 1. Loyihaning turi :** Shartnoma
- 2. Loyihaning nomi:** Bog‘ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi O.Avezov bilan «ELEKTRO LOYIXA» XF rahbar K.Tangriberganov o‘rtasida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini bajarish ishlari bo‘yicha shartnoma
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:** Bog‘ot tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 28.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik  
markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**U.A.XUDAYNAZAROV**

30.10.2022

2022 yil 31-DKTSBD dagi  
№ 476-12-170/0B-2022  
-sonli shartnomaga 2-ilova

**SHartnoma bahosining kelishuv  
B A Y O N N O M A S I**

Biz quyida imzo qo'yuvchilar: Bajaruvchi, «Xorazm viloyati Bog'ot tuman markazidan Dexqonbozor mahallasigacha, avtomobil qatnov yo'li Xonqa va Xazarasp tumanllari kesishmalariga tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari » ob'ekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachining topshirig'iga asosan ishlab chiqishni o'z zimmasiga oladi.

Ishlab chiqish bo'yicha 2022 yil \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ -sonli shartnoma baxosini qo'shimcha qiymat solig'i bilan - 48 200 000 (Qirq sakkiz million ikki yuz ming) so'mga teng deb kelishilganini tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'tasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

**«BUYURTACHI»**

**«ISH BAJARUVCHI»**

**«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»**

  
O. Avezov



K. Tangriberganov

2022 yil 31-OKTOB dagi  
№ 476-11-170-DB-102 sonli shartnomaga 1-ilova

Bajariladigan ishlarning kalendar  
REJASI

Ob'ektning nomlanishi	Bajarish muddati	
	Boshlanishi	Tugashi
«Xorazm viloyati Bog'ot tuman markazidan Dexqonbozor mahallasigacha, avtomobil qatnov yo'li Xonqa va Xazarasp tumanllari kesishmalariga tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari »ob'ekti bo'yicha loyixa smeta hujjalarni tayyorlash va Davlat ekspertiza boshqarmasiga topshirish	“28”oktyabr 2022y.	“07”Noyabr2022y.

«BUYURTMACHI»

«ISH BAJARUVCHI»

«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»



O. Avezov



K. Tangriberganov